

TARBIYACHILARDA PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Kuchbayeva Moxida Akbaraliyevna

Toshkent viloyati Angren pedagogika kolleji psixologи

Annotatsiya: Maqolada pedagogik mahorat tushunchasi, olimlarning pedagogik mahorat bo'yicha ilmiy g'oyalari, pedagogik mahorat mezonlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Maqolada yana pedagogik mahoratning mohiyati, zaruruiyati, egallash yo'llari, faoliyat davomida pedagogic mahoratni shakllantirish qirralari, yo'llari mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: san'at, mahorat, pedagogik mahorat, kreativ, mezon, optimist, integrativ, model.

Kirish: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunda: «Maktabgacha ta'lif bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko`zlaydi. Bu ta'lif olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lif muassasalarida olib boriladi», deb ta'kidlangan. Globallashuv davrida maktabgacha ta'lif sohasidagi muhim vazifalarni quyidagicha talqin etish mumkin.

- milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga mos va taraqqiyotni rag'barlantiruvchi darajadagi ta'lifni joriy etish;
- ta'lif muassasalari va ta'lifiy xizmat iste'molchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish;
- iste'molchi va ta'lif muassasasi o'rtasidagi raqobatbardoshlikni yanada kuchaytirish;
- bola tarbiyasiga ijtimoiy jamoatchilikni jalb etish. Darhaqiqat fikrimizning davomi sifatida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini keltirishimiz mumkin. Mazkur strategiyaning «Ta'lif va fan sohasini rivojlantirish» yo'nalishida uzlusiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lif muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish kabi vazifalar belgilab berilgan. Bugungi kun tarbiyachisi bola-larga ta'lif-tarbiya berishning eng samarali yo'llarini tanlay olish mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Tarbiya berish jarayonida bolalarda nafaqat qoida va xulq-atvor me'yorlari, balki barcha ijobjiy fazilatlar shakllantiriladi. Buning uchun tarbiyachida pedagogik mahorat shakllangan bo'lishi lozim. Pedagogik mahorat inson tarbiyasini amalga oshiruvchi o'quv-tarbiya ishlaringning

samarali bo'lishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Pedagogik mahorat nazariy bilimlarni emas, balki aniq faoliyatni ko'rsatadi. Pedagogik adabiyotlarda pedagogik mahorat turlicha talqin qilinadi. Pedagogik mahorat kasbiy ko'nikmalarining yuksak darajada rivojlanishi, shaxsning kasbiy sifatlari, san'at darajasidagi mahorat, pedagogik mohirlik, san'at va bilimdonlik deb ta'riflanadi. Demak, pedagogik mahoratni doimiy ravishda mukammalashib boruvchi, har bir pedagog uchun qulay bo'lgan ta'lism-tarbiya berish san'ati, deyishimiz mumkin. Pedagogik mahorat har bir shaxsning rivojlanishidagi ma'naviy muhit, uning cho`qqilarni zabit etish ruhini o'zida mujassamlashtirib, uzining «MEN»ligini ko'rsatib, insoniyat qadriyatidagi kuchlarni yig'ib, o'zining yolg'iz emasligini his qilibgina qolmasdan, ma'naviy boy bo'lishni ham ta'minlaydi. V.I.Andreev fikricha, mahorat inson faoliyatining bir turi sifatida namoyon bo'ladi. U pedagogik mahorat belgilarini quyidagicha tasniflaydi:

- muammoli vaziyatlarni bartaraf eta olish va ijodiy yondashuv
 - jamiyat va shaxs rivojlanishiga ijtimoiy va shaxsiy jihatdan ta'sir kursatish;
 - shaxsiy sifatlarini namoyon etish, bilim, ko'nikma, malaka, ayniqsa ijobiy motivatsiyalar, tarbiyachining ijodiy kobiliyati;
 - yangilikni ta'lism jarayoniga samarali tatbiq etish va natijagaerishish.
- SH.A.Amonashvili o'zining qarashlarida bolalarga ta'lism-tarbiya berish samarasi pedagog shaxsiga bog'lik ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, pedagogning shaxsiy sifatlari, ya'ni bolalarga muhabbat, ularni tushuna olish qobiliyati, optimist bo'lish va tarbiyaning ta'sir kuchiga ega ekanligiga ishonishdan iborat bo'ladi. Pedagogdagi mavjud sifatlar, tabassum qilish, qat'iyatli bo'lish, jiddiylik, aqlililik, muloqotchanlik, samimiylilik va hayotni sevishi hammaga yoqishini asoslaydi.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish har bir pedagogdan o'z ustida ishlashning maqsadga qaratilganligi bilan namoyon bo'ladi. Pedagogik mahorat, bilim va ko'nikmaga bog'liq bo'lib, tarbiya jarayonini bilish, uni yarata olish va harakatga keltirish bilan ko'rindi. Mahorat pedagogik texnikaga ega bo'lish ko'nikma va malakasidan kelib chiqib, tarbiyachi mashg'ulot jarayonida o'z o'rnila undan foydalana olishi talab etiladi. Zamonaviy tarbiyachi o'zini idrok etish, o'z faoliyatini rejalashtirish, o'zini boshqarish, nutqini tarbiyalash, metodik va kommunikativ tayyorgarlik va pedagogik o'zaro munosabatlarda o'zini namoyon etish mahoratini egallagan bo'lishi kerak. Bularning barchasi tarbiyachiga kasbiy faoliyatida aqliy, emotsional, ma'naviy va jismoniy qiyinchiliklarni bemalol yengishga imkon beradi. Yuqori darajali pedagogik mahorat tarbiyanuvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlanitiradi, ulardagi missiy etishmovchiliklarni bartaraf etadi. Mahoratli tarbiyachi murakkab pedagogik vaziyatlarda o'z bilimlari, pedagogik masalalarni hal etishda

tarbiyalanuvchilarga ta'sir etish usullari, uslublari va vositalarini mohirona qo'llay oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, tarbiyachi pedagogik mahoratining o'ziga xos jihatlarini tizimlashtiramiz:

- tarbiyachi tomonidan o'quv jarayonining maqsadga yo'naltirilishi; ta'lim natijalariga ko'ra yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lish; muloqotchanlik malakasiga ega bo'lish; eng qulay samarali o'qitish usullari va vositalarini tanlay bilish; o'quv faoliyati natijasiga ko'ra bo'lg'usi mashg'ulotga ijodiy yondashgan holda tayyorgarlik ko'rish.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi pedagogik mahoratni muntazam ravishda oshirib borishi zarur. Chunki ular oldida barkamol avlodni tarbiyalashdek ulkan vazifa turadi. Shuningdek, mahoratli tarbiyachida tashabbuskorlik, mustaqillik, mas'uliyatlilik, har qanday muammoli vaziyatga tayyor turish va uni hal eta olish, mustaqil ravishda xulosa chiqarish kabi shaxsiy sifatlar bo'lishi talab etiladi. Pedagogik mahorat bu ijodiy muhit yaratish bo'lib, tarbiyachidan pedagogik qobiliyatni amaliyotga tatbiq etishni taqozo qiladi. Pedagogik mahorat asosini pedagogik qadriyat tashkil qilib, tarbiyachi axloqiy, aqliy, huquqiy, estetik va boshqa sifatlarga ega bo'lishi, tarbiyalanuvchilarga ta'sir ko'rsatish, o'zining shaxsiy qarashlarini rivojlantirishi talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Amonashvili SH.A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. -Minsk: «Universitetskoe», 2000. -S. 154.
3. Andriadi I.P. Osnovy pedagogicheskogo masterstva: Ucheb. posobie dlya stud. sred. ped. ucheb. zavedeniy. - M.: «Akademiya», 1999. - S. 160.
4. 4.ISSN (online): 2181-2454 Volume 2 | Issue 11 |November, 2022 | SJIF: 5,965 | UIF: 7,6 | ISRA: JIF 1.947 | Google Scholar
5. www.Edu.uz.
6. www.ta'lim.uz
7. www.Uzbeknews.com
8. www.world.com www.zyonet.uz